

**ALISHYER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01
RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA

LUTFIY SHE’RIYATIDA IRFONiy MAZMUNNING BADIY TALQINI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (O‘zbek mumtoz adabiyoti)

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsfa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Boymuratova Nargiza Bozorboyevna

Lutfiy she'riyatida irfoniy mazmunning badiiy talqini 3

Boymuratova Nargiza Bozorboyevna

The Artistic Interpretation of Gnostic Meanings in Lutfi's Poetry 25

Боймуратова Наргиза Бозорбоевна

Художественная интерпретация ирфонийного содержания в поэзии Лутфия ... 49

E'lon qilingan ishlar royxati

List of published works

Список опубликованных работ 54

**ALISHYER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01
RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA

LUTFIY SHE‘RIYATIDA IRFONIY MAZMUNNING BADIY TALQINI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (O‘zbek mumtoz adabiyoti)

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4800 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti veb-sahifasi (www.tsuull.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ashurova Gulbahor Nurullayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Erkinov Aftandil Sadirxanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Karimova Faridaxon Isakovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Nizomiy nomidagi O‘zbekiston
milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____dagi ___raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.S.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., akademik

Q.U. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.f.d., professor

N.A. Jabborov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotining markaziy masalasi inson kamoloti bo‘lib, u barcha davrlar va jamiyatlarda turlicha talqin etilgan. Adabiyotning asosiy vazifasi va maqsadi hamisha insoniyat ma’naviy dunyosi va axloqini takomillashtirish bo‘lgan, biroq bu masala adabiyotlarda har bir millat va xalqning dunyoqarashi, falsafasi va e’tiqodidan kelib chiqib badiiy ifodalandi. Xususan, islom ta’sirida yaratilgan Sharq xalqlari adabiyotida insonning ruhiy barkamolligi, axloqiy kamoloti tasavvuf falsafasi bilan chambarchas bog‘lanib ketdi va bunday yondashuv, odam va olam munosabatining teran tadqiqi jahon adabiyotida alohida bir adabiy oqim – tasavvuf adabiyotini yuzaga keltirdi. Buyuk ma’rifiy evrilishlar insoniyatda yuksak ideallarni paydo qiladi, yangi bashariy qadryatlarni shakllantiradi. Adabiyotshunoslik esa o‘z tarixi mobaynida ushbu adabiyotning timsollar tizimi, obrazlarini va ifoda usullarini tadqiq etib kelmoqda, bu borada muayyan tajribalar to‘plab ham ulgurdi. Sharq xalqlari badiiy-estetik tafakkuri erishgan yutuqlarni muayyan darajada baholadi. Hozirda esa mazkur adabiy yo‘nalishning har bir xalq adiblari ijodida qanday namoyon bo‘lishi, ularning umumiy va individual xususiyatlarini ochib berish, bu orqali xalqlarning adabiy-ma’naviy hayot rivojiga qo‘shgan hissasini yoritish nihoyatda dolzarbdir.

Dunyo adabiyotshunosligida adabiyot va tasavvufning munosabati, tasavvuf adabiyotini vujudga keltirgan omillar, so‘fiy-darveshlar va ijod ahli o‘rtasidagi ruhiy yaqinlik kabi masalalar tadqiq etilgan. Dunyo adabiyotshunosligi bu borada, asosan, sharqlik ijodkorlar ma’naviy yetuklik masalalarini qanday badiiy vositalar bilan tasvirlagani, mazmun va ifoda mutanosibligini qaysi yo‘llar, uslublar bilan ta’minlashgani, bu jarayonda ularning o‘ziga xos mezonlari nimalardan iborat bo‘lgani kabi masalalarga e’tibor qaratgan. Adabiyotning maqsadi barcha xalqlar uchun umumiy, ifodasi esa xususiy bo‘lganidek tasavvuf adabiyotiga xos umumiy mazmun ham har bir xalq adabiyotida o‘ziga xos timsol va obrazlar orqali badiiy inkishof etilgan. Zamonaviy adabiyotshunoslikning irfon falsafasining har bir xalq adabiyotida namoyon bo‘lish xususiyatlarini, uning o‘sha xalq ma’naviy hayotida tutgan o‘rnini ko‘rsatib berishi katta ilmiy ahamiyatga ega.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham mustaqillik davridan boshlab irfon falsafasini badiiy gavdalantirgan adabiyot namunalarini tadqiq etish, bu borada shakllangan mushtarak adabiy an’analarga xos qonuniyatlarni aniqlash, orif ijodkorlar asarlarini o‘rganish tendensiyasi jiddiy tus oldi. Zero, bu davrda “So‘z san’ati madaniy fenomen sifatida yangi-yangi avlodlarni tarbiyalab kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarda ega”, “Haqiqiy san’atni, sof va boqiy ma’naviy qadriyatni faqat Parvardigori Olamning marhamati bilan Hazrati inson yaratadi”¹ degan haqiqatlar teran anglab yetildi. O‘zbek mumtoz adabiyotining ruhi bo‘lgan irfon falsafasi Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Nosiruddin Rabg‘uziy, Atoyi, Alisher Navoiy kabi ijodkorlar adabiy merosi misolida yaxshi tadqiq etildi. Ammo XV asr birinchi yarmida yashab ijod etgan aksar shoirlar, jumladan, Mavlono Lutfiy ijodiga

¹ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. 2017-yil 4-avgustdagi soni.

ko'proq dunyoviy lirika namunasi, dunyoviy mazmunga ega adabiyot namunasi sifatida qarash ustuvorligicha qoldi. Hanuz Lutfiy ijodining mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi ilohiy ma'rifat g'oyalari va irfon falsafasi borasida maxsus tadqiqotlarning yaratilmagani ayni shunday yondashuvning mahsuli hisoblanadi. Holbuki, Lutfiy she'riyatini irfoniy mazmun va timsollar kontekstida olib o'rganish – muallif ko'zlagan ijodiy konsepsiya va mohiyatni kashf etishda nihoyatda zarur. Shu ma'noda, Lutfiy yashagan davr o'zbek she'riyatiga xos ustuvor jihatlarni, shoir ijodining mavzu va mazmun ko'lamini, majoziy va haqiqiy ishq talqinlarini, irfoniy obraz va timsollar, badiiy tasvir, til va uslubdagi o'zgarishlarni ochib berish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga molikdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek mumtoz adabiyotining yuksalishi va taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan so'z san'atkorlaridan biri bo'lgan Mavlono Lutfiy hayoti, ijodi o'z zamonidan boshlab o'rganila boshlangan deyish mumkin. Shoir hayoti va ijodiga oid dastlabki ishonchli ma'lumotlar Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Badoye ul-bidoya"² debochalari orqali yetib kelgan. Alisher Navoiyning Lutfiy haqidagi qaydlari, asosan, uning hayoti va ijodi, uslubi, orif inson bo'lganligi hamda turkiy va forsiy she'rda benazir bo'lganligini asoslashga xizmat qiladi. Bu davrda, shuningdek,

² Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 61 – 62; Shu muallif. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 17-том. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 206 – 207; 409; 476 – 477; Shu muallif. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 35 – 36; Shu muallif. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. МАТ. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 92; Shu muallif. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. МАТ. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 115 – 116; Shu muallif. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ. 1-том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 14 – 15.

Xodamirning “Makorim ul-axloq”, “Habib us-siyar”³ va Abdulla Kobuliyning “Tazkirat ut-tavorix”⁴ asarlarida ham Lutfiy haqida qaydlar uchraydi. XVI asrda yashab ijod etgan adiblarimizdan Boburning “Muxtasar”ida Lutfiydan baytlar keltirilgan bo‘lsa, Faxriddin Ali Safiyning “Latoyif ut-tavoyif” asarida Lutfiy va Boysunqur Mirzo bilan o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan latif voqea hikoya qilinadi⁵. XVII – XIX asrlardagi manbalar (“Majmuayi mansur va manzumi Vozeh” kabi) yuqorida nomlari tilga olingan manbalardagi ma’lumotlarni takrorlaydi. S.Erkinov qayd etganidek, “Navoiydan keyin yozilgan tazkiralarning birortasida ham Lutfiy hayoti va ijodi haqida muhim yangilik uchramaydi”⁶.

Mavlono Lutfiy ijodini ommalashtirish va zamonaviy adabiy mezonlar asosida tadqiq etish ishlari XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat faoliyati bilan boshlandi. Fitrat domla zamonaviy fanimiz tarixida ilk marta Lutfiy g‘azallari va tuyuqlarini o‘zbek adabiyoti namunasi sifatida nashr ettirdi⁷. Keyinroq Po‘latjon Qayumov “Tazkirayi Qayyumiy”da Lutfiy haqida muxtasar ma’lumotlar yozib qoldirdi⁸. Shu tariqa shoir adabiy merosiga qiziqish va u yashagan davr she’riyatini tadqiq etish kuchaydi. Birin-ketin Oybek, E.Rustamov, H.Zarif, A.Hayitmetov, E.Fozilov, N.Mallayev, S.Erkinov, E.Ahmadxo‘jayev, A.Hayitmetov, B.Valixo‘jayev, A.Qayumov, V.Zohidov, V.Abdullayev, S.G‘aniyeva, Y.Is‘hoqov, I.Haqqulov, X.Rasulov, M.Jamolova, M.Abduvohidova, Sh.Sirojiddinov, S.Rafiddinov, K.Mullaxo‘jayeva, X.Латипов, B.Rajabova, N.Boymurodova kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlari e‘lon qilindi⁹.

³ Гиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. Форс тилидан Комилжон Раҳимов таржимаси. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 40.; shu muallif. Ҳабиб ус-сияр. Нашрга тайёрловчи Жамол Ҳумоюнӣ. IV жилд. – Техрон: 1954. – Б. 107.

⁴ Bu haqda qaragang: Erkinov S. Lutfiy. – Toshkent: Fan, 1965. – B. 6. : Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarining kiyisii-tipologik, tekstologik taхlili. – Toshkent: Akademnashr, 2011; shu muallif. Amir Alisher. – Toshkent: Adabiyot, 2022; shu muallif. Shuhrat domla. Sh. Sirojiddinov haqida. – Toshkent: Akademnashr, 2023; Siracoddinov Sh. Emir Olishir: hayati va yaradichiligi. Monoqrafiya. – Baki: Ilm va tahsil, 2023.

⁵ Фахриддин Али Сафий. Латоиф ат-тавоиф. – Душанбе, 1968. – Б. 84; “Ҳикоятлар ва ривоятлар”. Тўпловчи ва таржимон Кибриё Қаҳҳорова. – Тошкент, 1987. – Б. 62 – 63.

⁶ Эркинов С. Лутфий. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 5.

⁷ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. Нашрга тайёрловчи О. Ҳамроева. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2013. – Б. 111 – 120.

⁸ Пулатжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. – Тошкент: ЎЗР ФА Қўлэмалар институти нашриёти, 1999. – Б. 32 – 34.

⁹ Айбек М. Очерк развития узбекской поэзии. /Антология узбекской поэзии. – М., 1950; Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – М.: ИВЛ, 1963; Маллаев Н. Ўзбек адабиётида ғазал ва унинг ривожида Навоийнинг роли ҳақида / Навоийга армуғон. – Тошкент, 1963. – Б. 342 – 398; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 332 – 348; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: “O‘ZBEKISTON” НМИУ, 2015; Фозилов Э. Лутфийнинг “Тулу Наврўз”и ҳақида / Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 1972. 4-сон; Зариф Х. Лутфий ва Навоий. / “Улуғ ўзбек шоири” тўплами. – Тошкент: Фан, 1948; shu muallif. Фозиллар фазилати. – Тошкент: 1979. – Б. 5 – 29; Ҳаққулов И. Лутфий ва Бобур. / “Адабий мерос”. Тошкент, 1982, 4 (24)-сон. – Б. 38 – 44; Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1996; Исоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014; Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1995; Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Тошкент: Фан, 1992; Абдувоҳидова М. Ўзбек адабиётида мунозара жанри. – Тошкент: Фан, 1984; Ўзбек адабиёти тарихи. Лутфий. Муаллиф С.Эркинов. Беш томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 246 – 303; Расулов Х. Отойи ва халқ оғзаки ижоди. / Адабий мерос. 1978, 2-сон. – Б. 64 – 69; Ҳаққул И. Қулоқ солсанг Отойи сўзларига / Шеърят – рухий муносабат. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 55 – 67; Валихўжаев Б. Малик ул-калом – Мавлоно Лутфий. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1999; Фаниева С. Мавлоно Лутфий. Манзумалар. – Тошкент: Meгуyus, 2010; Ш.Сирожиддинов. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011; К.Муллахўжаева. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019; X.Латипов. Ўзбек мумтоз адабиётида маърифат талқини ва ориф образи (XIII-XV асрлар). – Бухоро, 2021; Ражабова Б. Муштарак адабий ҳодисалар. – Тошкент: Muharrir,

Bu sirada Botirxon Valixo‘jayevning “Malik ul-kalom – Mavloni Lutfiy” tadqiqoti alohida va salmoqli o‘rin tutadi. Olim unda Lutfiy hayoti va ijodiga oid bahsli masalalarga oydinlik kiritishga harakat qiladi, e‘tiborlisi, shoir g‘azallarini jiddiy filologik tahlil etadi.

Shu o‘rinda zamonaviy o‘zbek lutfiyshunosligida Sodik Erkinov va Erkin Ahmadxo‘jayevlarning alohida xizmatlari borligini ta‘kidlash kerak. S.Erkinov 1965-yildayoq “Lutfiy”¹⁰ nomli maxsus tadqiqot e‘lon qildi. Keyinchalik olim, asosan, tadqiqot xarakteridagi so‘zboshilar bilan Lutfiy ijodiy merosini nashr ettirish ishlarida boshchilik qildi¹¹. Erkin Ahmadxo‘jayev esa Lutfiy ijodini va qo‘lyozmalarini jiddiy tadqiq etdi, asarlarini bir necha bor nashr ettirdi. Olimning “Lutfiy asarlari qo‘lyozmalarining katalogi” (1987), “Turkiy nazm shehrgari” (1992), “Mavloni Lutfiy” (1997) kabi tadqiqotlari lutfiyshunoslik manbalari, muhim faktlari va asosiy xususiyatlarini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etdi¹².

Lutfiy merosi xorijda ham bir qadar tadqiq etilgan. Charlz Riyo, Z.Validov, F.Ko‘pruluzoda, N.Xofman, Y.Bertels, Ogoh Sirri Lavand, Hikmat Ertaylon, Edgar Bloshe, Yanosh Ekman kabi olimlarning tadqiqotlari shular jumlasidandir¹³. Xorijlik mutaxassislarning aksar ishlari Lutfiy devoni qo‘lyozmalari, matnshunosligi, manbalari, shuningdek, shoir hayoti va faoliyati bilan bog‘liq masalalar tadqiqiga bag‘ishlangan. Ular S.Erkinov, E.Ahmadxo‘jayev ishlarida batafsil tavsif etilgan, baholangan¹⁴.

Mavjud tadqiqotlarga oid kuzatishlardan ma‘lum bo‘ldiki, bugunga qadar Lutfiy hayoti va ijodi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Ularda davr va sharoit taqozosiga ko‘ra, asosan, Lutfiy hayoti va faoliyati, asarlarining matni va manbalariga oid ishlar amalga oshirilgan. Ta‘kidlash kerakki, ushbu tadqiqotlar bugungi lutfiyshunoslik rivoji uchun asos vazifasini bajaradi. Ulug‘ olimlarimiz zahmatli mehnatlar evaziga Lutfiy ijodini jiddiy tadqiq etishdi va hozirgi fan uchun muhim

2019; Rajabova V. Lutfiy va Bobur. – Toshkent: Fan, 2025; Боймуродова Н. XV аср биринчи ярми ўзбек шеърлятида тасаввуфий маъно ва тимсоллар. – Тошкент: Muharrir, 2012.

¹⁰ Эркинов С. Лутфий. – Тошкент: Фан, 1965.

¹¹ Ўзбек адабиёти тарихи. Лутфий. Муаллиф С.Эркинов. Беш томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 246 – 303; Лутфий. Танланган шеърлар. Нашрга тайёрловчи Эркинов С. – Тошкент: ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, 1958; Лутфий. Сенсан севарим. Нашрга тайёрловчилар: С.Эркинов, Э.Фозилов ва Э.Аҳмадхўжаев. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987; Лутфий. Девон. Нашрга тайёрловчи Эркинов С. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012.

¹² Аҳмадхўжаев Э. Лутфийнинг янги топилган фардлари. / “Адабий мерос”, 1976, 6-сон. – Б. 39 – 42; shu muallif. Бобурнинг “Аруз” рисоласида Лутфий газалиётдан намуналар. / “Адабий мерос”. 1982, 4-сон. – Б. 33 – 39. shu muallif. Мавлоно Лутфий Навоий таърифида. / “Адабий мерос” тўплами. 1984, 1(29)-сон. – Б. 40 – 49; Лутфий асарлари қўлёзмаларининг каталоги. Тузувчи Аҳмадхўжаев Э. – Тошкент: 1987; Аҳмадхўжаев Э. Гадоий. – Тошкент: Фан, 1978; Аҳмадхўжаев Э. Мавлоно Лутфий. – Тошкент: 1991; shu muallif. Туркий назмнинг сеҳргари. – Тошкент: Фан, 1991; shu muallif. Лутфий ва Жомий ижодий муносабатлари. / Мавлоно Лутфий. – Тошкент, 1991. – Б. 36 – 49.

¹³ Rieu Charles. Catalogue of the Turkish manuscripts in the British museum. – London: 1888. – P. 285 – 286; Validov Z. Lutfiy va uning devoni. – Qozon: 1914; Ko‘pruluzoda Fuod. XV – XVI asrlardagi Chig‘atoy shoirlari. // “Turk yurdi” jurnali, 1917; Bertels E.Э. Избранные труды. Том 4. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – С. 49 – 59; Levend Agah Sirri. Alisher Navoiy. 1-jild. – Istanbul: 1965 – 68. – S. 69 – 70; Xafman N. Turkish literature. Bio-bibliographical Survey. Section III, Vol. IV. K – N. – Utrecht: 1969; Lutfi divani. Nashrga tayyorlovchi Ismail Hikmat Ertaylan. – Istanbul: Istanbul universiteti nashriyoti, 1960; Ko‘prulu Mehmed Fuad. Turk edebiyatinda ilk mutasavviflar. Uchunchi basim. – Ankara: 1976.

¹⁴ Эркинов С. Лутфий. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 4 – 10; Аҳмадхўжаев Э. Туркий назмнинг сеҳргари. – Тошкент: Фан, 1991.

poydevor yaratib ketishdi. Shu bilan birga mazkur tadqiqotlarning hech birida Lutfiy ijodini irfoniy mazmun kontekstida tadqiq etish asosiy maqsad qilib qo'yilmaganini ham ta'kidlash zarur. Ularda Lutfiy she'riyatida tasavvufiy ohanglar borligi, hatto, Lutfiy g'azallarida "komillikka yetishuv yo'lida sa'y-harakatda bo'lgan insonni ulug'lash" (S.Erkinov) asosiy maqsad ekani qayd etilgan bo'lsa-da, masalaga jiddiy va maxsus yondashuvni ko'rmaymiz. Lutfiy she'riyatidagi majoziy va haqiqiy ishq tasviri o'rtasidagi muvofiqlik tadqiqi, irfoniy mazmun talqini, tasavvufiy timsol va ma'nolar olami, uslubdagi o'ziga xos jihatlar yaxlit monografik planda o'rganilgan emas. Biz tadqiqotda masalaning ayni shu jihatiga diqqat qaratdik va mavzuni imkon qadar kengroq yoritishga harakat qildik.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek mumtoz adabiyoti va matnshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Lutfiy she'riyatini irfoniy mavzu kontekstida tadqiq etish orqali shoir she'riyatida irfoniy mazmunning badiiy talqini, majoz va haqiqat uyg'unligiga xos muhim jihatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Lutfiy yashagan davr va adabiy muhitning o'ziga xos jihatlarini, XV asr birinchi yarmida yashab ijod etgan adiblar ijodida irfoniy mazmunning tutgan o'rnini ochib berish;

irfoniy talqin va orifona qarashlar ifodasining Lutfiygacha bo'lgan turkiy adabiyotdagi adabiy-estetik ildizlarini ilmiy asoslash;

Lutfiy hayoti, xususan, uning orif shaxs bo'lgani masalasini birlamchi manbalar asosida ko'zdan kechirib, she'riyatini uslub, til va ifoda imkoniyatlarini tahlil etib Lutfiy dunyoviy she'riyat vakili emas, aksincha, irfoniy she'riyat vakili bo'lganini asoslash;

Lutfiy she'riyati irfoniy mazmunga ega she'riyat ekani, unda orif obrazi mavjudligi va orif obraziga xos yetakchi xususiyatlarni aniqlash;

Lutfiy she'riyatidagi irfoniy timsollar tizimini o'rganish orqali orifona timsol va tushunchalar talqiniga xos muhim jihatlarni tadqiq etish, orifona timsollarning poetik vazifasini yoritib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida Mavlono Lutfiy "Devon"ining Sodir Erkinov tomonidan tayyorlanib 2012-yili chop etilgan nisbatan mukammal nashri, "Sensan sevarim"(1987), "Mavlono Lutfiy" (manzumalar,1965) to'plamlari olindi.

Tadqiqotning predmetini Lutfiy ijodidagi orifona g'azallarining tahlili va ularni badiiy ifodalash mahoratini ochib berish, shoirning ijodiy uslubi, poetik mahorati va adabiy an'analarga munosabati, asarlardagi tasavvufiy-irfoniy timsollar va ularning badiiy talqini kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda sistemali yondashuv, qiyosiy-tarixiy, madaniy-tarixiy, tavsiflash tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Irfoniy mazmun va orifona talqinlar ifodasining Lutfiygacha bo'lgan turkiy adabiyotdagi adabiy-estetik tadriji tasavvuf falsafasining irfon davri (X – XIII)ga oid

tasavvufiy g'oyalar Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Nosiruddin Rabg'uziy, Atoyi, Sayyid Qosimiylarning "Tayr", "Salomon va Ibsol", "Yusuf", "Qissas ul-Rabg'uziy", "Qutadg'u bilig", "Hibbat ul-haqoyiq", "Haqiqatnoma" kabi asarlari misolida ochib berilgan;

Lutfiy she'riyatidagi irfoniy mazmunning islomiy-ma'rifiy negizlari, irfonning uch turi (*irfoni omma, irfoni xossa, irfoni xos al-xossa*) va uch darajasi (ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin, haq ul-yaqin) ilk mutasavviflar, so'fiy ijodkorlar qarashlari asosida dalillangan;

Lutfiy usluban majoz tariqida ijod qiluvchi shoirlar toifasiga mansubligi, orif shaxs va shoir bo'lgani uning darveshona hayot tarzi, silsilasi Shihobiddin Bistomiy orqali Boyazid Bistomiya ulanishiga oid faktlar, she'riyatidagi zulf, zunnor, tarso, imon kabi irfoniy timsol va tushunchalar tadqiqi asosida dalillangan;

Lutfiy she'riyatidagi irfoniy timsol va tushunchalar tizimini mazmunan *diniy-ma'rifiy, tabiat ashyolari, tana a'zolari, may va narsa-buyumlar* bilan bog'liq besh guruhga ajratish mumkinligi, shoir talqinlarida diniy-ma'rifiy tushuncha va tana a'zolari bilan bog'liq zulf, qosh, ko'z, dudoq, yuz, og'iz, lab, bel kabi timsollar yetakchilik qilishi tarso, zunnor, ko'ngil kabi orifona timsol va tushunchalarning poetik vazifasini ochib berish orqali asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mavloni Lutfiy she'riyatidagi irfoniy mazmunning islomiy-ma'rifiy asoslari belgilanib, irfonning mazmun-mohiyati tasviflangani, bunda ilk mutasavviflar, so'fiy ijodkorlar, Lutfiyning qarashlariga tayanilgani, Lutfiygacha bo'lgan turkiy adabiyotdagi irfoniy mazmun va orifona talqinlar ifodasining adabiy-estetik ildizlari yoritilgani, Lutfiy usluban majoz tariqida ijod qiluvchi shoirlar toifasiga mansubligi va u orif shaxs va shoir bo'lgani birlamchi manbalar, chuqur ilmiy izlanishlar asosida dalillanganiga doir xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy xulosalar berishi dalillangan;

Lutfiyning so'fiyona hayoti, pirlariga oid ma'lumotlar, shoir o'z she'riyatida irfoniy timsol va tushunchalar tizimidan mahorat bilan foydalanganiga oid xulosalar adabiyotshunoslikda mavjud bo'lgan Lutfiy hayoti va ijodiga oid ayrim yangilish talqinlarni bartaraf etadi, o'zbek adabiyoti tarixi va adabiyot nazariyasi kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo'llanmalar takomillashuviga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi adabiyotshunoslikning so'nggi ilmiy yutuqlari va ishonchli manbalarga tayanilganligi, mavzu bo'yicha yetakchi mutaxassislar qarashlari umumlashtirilgani, xorij va respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalar, ilmiy-nazariy konferensiyalarda o'qilgan ma'ruzalar, nashr etilgan tezis va maqolalar, tadqiqot obyekti va predmetiga tizimli ilmiy yondashuv va istifoda etilgan metodologiyaning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, dalil, tahlil va xulosalarning dastlabki va ishonchli manbalarga tayangani, nazariy qarash, yechim va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning tegishli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Mavloni Lutfiy she'riyatini to'g'ri talqin etish, adabiyotshunoslikda keng yoyilgan "Lutfiy – dunyoviy ishq kuychisi" qabilidagi qarashlarni aksar hollarda to'g'ri emasligini isbotlashi, Lutfiy orif va so'fiy shaxs sifatida butun ijodida irfoniy

mazmunni poetik timsollar, ramzlar vositasida badiiy tasvirlaganini asoslashda ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Lutfiy ijodi va XV asr birinchi yarmi o‘zbek she‘riyati mohiyatini yanada chuqurroq anglash, Mavlono she‘riyati mag‘z-mohiyatini tashkil etuvchi irfoniy mazmunning asosiy xususiyatlarini kengroq yoritish, Lutfiyning majoz haqiqatga vosita qilingan ifodalarini, uslubini teran idrok etish, shoirning poetik mahoratini ochib berish, shuningdek, adabiyot tarixi va nazariyasiga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishga yordam berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Lutfiy she‘riyatidagi irfoniy mazmunning badiiy talqini tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Irfoniy mazmun va orifona talqinlar ifodasining Lutfiygacha bo‘lgan turkiy adabiyotdagi adabiy-estetik tadriji tasavvuf falsafasining irfon davri (X – XIII)ga oid tasavvufiy g‘oyalar Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Nosiruddin Rabg‘uziy, Atoyi, Sayyid Qosimiy (“Tayr”, “Salomon va Ibsol”, “Yusuf”, “Qissas ul-Rabg‘uziy”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibbat ul-haqoyiq”, “Haqiqatnoma” kabi asarlarida orifona dunyoqarashning badiiy talqin etilishi hamda keyingi davrdagi turkiy poetik tafakkurga, xususan, Mavlono Lutfiy ijodiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgani, ma‘rifiy mazmunning Lutfiy ijodidagi barkamol tasviri bevosita o‘zigacha bo‘lgan turkiy adabiyot bilan ham aloqadorligiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021 – 2023-yillarga mo‘ljallangan IZ-20210201 raqamli “Alisher Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi va targ‘iboti asosida ko‘p tilli multimedia to‘plamini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 5-iyuldagi 01/4-2953-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu loyiha materiallari irfoniy mazmun va orifona talqinlar ifodasining turkiy va forsiy adabiyotdagi adabiy-estetik ildizlari, takomil jarayoni hamda bir-biriga ta‘siriga oid yangi ma‘lumotlar, nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

Lutfiy she‘riyatidagi irfoniy mazmunning islomiy-ma‘rifiy negizlari, irfonning mohiyatan keng qamrovli tushuncha ekanligi ilk mutasavviflar, so‘fiy ijodkorlar qarashlari asosida ochib berilgani, irfonning uch turi (irfoni omma, irfoni xossa va irfoni xos al-xossa) va uch darajasi (ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin, haq ul-yaqin) haqidagi qarashlar asoslangani, turli tillarga mansub adabiy asarlardagi irfoniy ma‘no talqinida muallifning irfon turlari va bosqichlariga nisbatan mavqeyini inobatga olish zaruratiga oid xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021 – 2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 5-iyuldagi 01/4-2954-son ma‘lumotnomasi). Natijada elektron platforma materiallari doirasida o‘zbek adabiyotining juda katta davrini qamrab olgan mumtoz adabiyotni tadqiq etishda irfon turlari va darajalarini belgilab olish, jumladan, Lutfiy o‘z she‘riyatida xoslar irfonini badiiy tasvirlaganini inobatga olishga oid muhim ilmiy xulosalar chiqarishga erishilgan.

Lutfiyning usluban majoz tariqida ijod qiluvchi shoirlar toifasiga mansubligi va orif shaxs va shoir bo‘lgani, so‘fiyona hayot tarzi, ham *zohiriy*, ham *botiniy* ilmlarni o‘rgangani, tasavvuf shayxi Shahobiddin Xiyoboniy (Bistomiy) huzurida rasman suluk

o'tagani, o'z she'riyatida irfoniy timsol va tushunchalar tizimidan mahorat bilan foydalangani, XIV – XV asrlardagi turkiy she'riyat, xususan, o'zbek-ozarbayjon mumtoz she'riyatida keng yoyilgan irfoniy mazmunning estetik zamini Ibn Sino ijodi bilan boshlangan irfoniy adabiyot ekanligiga oid ilmiy ma'lumot va xulosalardan O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazida 2023-2025-yillarga mo'ljallangan O'A-23-25 raqamli “O'zbek-Ozarbayjon adabiy aloqalari” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazining 2025-yil 21-iyundagi AZE /45 -son ma'lumotnomasi). Natijada Navoiy, Fuzuliy she'riyatidagi irfoniy talqinlarda Lutfiy an'alarining davom etishi, tasavvufiy timsollarning badiiy vazifasi, qamrovi, ularning mazmuniga oid ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

Lutfiy she'riyatidagi irfoniy timsol va tushunchalar tizimini mazmunan *diniy-ma'rifiy, tabiat ashyolari, tana a'zolari, may va narsa-buyumlar* bilan bog'liq besh guruhga ajratish mumkinligi hamda ular orasida diniy-ma'rifiy va tana a'zolari bilan bog'liq timsol-tushunchalar yetakchilik qilishi – tarso, zunnor, kufr – imon, yuz – zulf, qosh – ko'z, ko'ngil kabi orifona timsol va tushunchalar ustuvorlik kasb etishi, ushbu turkumlanish keyinchalik o'zbek-ozarbayjon mumtoz she'riyati namunalarida barqarorlashganiga doir xulosalardan Ozarbayjon Respublikasi FA Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutida 2022 – 2025-yillar uchun mo'ljallangan EQA-23-25 raqamli “Mustaqillik davri o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari va yetakchi tendensiyalari” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Ozarbayjon Respublikasi FA Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutining 2025-yil 3-iyundagi № 757/A7-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihada Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy she'riyatida turkona tafakkur mushtarakligi, ishq, irfon, tasavvufga oid tushuncha va timsollar tasvirining umumiyligi, o'zni va ahamiyati kabi masalalarni kengroq yoritishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy nazariy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Mavzuga doir 1 ta o'quv qo'llanma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajm 158 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy qiymati yoritilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e'lon qilinganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning “**Lutfiy she’riyatidagi irfonning islomiy-ma’rifiy va adabiy-estetik asoslari**” deb nomlangan dastlabki bobi ikki fasldan tarkib topgan. Uning birinchi fasli “*Irfoniy mazmun va uning islomiy-ma’rifiy manbalari*” deb nomlanadi. Ushbu faslda Mavlono Lutfiy ijodining XV asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, irfon atamasining mazmun-mohiyati, so‘fiyona talqinlari, u bilan aloqador boshqa atamalar ixtisoslashgan ma’nolar, shoir she’riyatida aks etgan irfoniy mazmunning islomiy-ma’rifiy manbalari tadqiq etilgan.

Adabiyot va tasavvufning o‘zaro yaqinlashuvi natijasida Sharqda o‘ziga xos tasavvuf adabiyoti shakllandi. Ushbu adabiy hodisaning tabiatini to‘g‘ri yoritib berish uchun uning ham islomiy-ma’rifiy, ham adabiy-estetik asoslarini bilish talab etiladi. Tasavvuf adabiyotining vujudga keltirgan islomiy-ma’rifiy asoslar hijriy VIII asr o‘rtalaridan shakllana boshlagan tasavvuf ta’limotida mujassam bo‘lgan. Bu borada ayniqsa X – XIII asrlarda shakllangan tasavvufning oriflik davri (boshqa manbalarda “irfon bosqichi”) alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda zohiriy ibodat, riyozat, mujohada tarzidagi so‘fiyona hayot zohirdan botinga yuzlandi, ruhiy poklik va Haqqa yetishish asosiy g‘oyaga aylandi. Tabiiyki, ushbu g‘oya bu davr g‘oyalarini kuylagan adabiyotning ham asosiy masalasiga aylangan edi.

Islom ta’limoti asosida yuzaga kelgan tasavvuf dastlab zohidlik ko‘rinishida yuzaga kelib, so‘ngra oshiqlik, oriflik ko‘rinishida takomil topdi. Asrlar o‘tishi bilan tasavvufning turli maktablari va tariqatlari yuzaga kelgan bo‘lsa-da, ularning eng asosiy masalasi irfon – ilohiy ma’rifat bilan Haqni tanish, tafakkuriy-shuuriy intilish bilan dunyoni mushohada qilish, yaratilishning mohiyatini anglashga harakat bo‘lib qola berdi. Shu uchun ham mutaxassislar tasavvufning eng klassik davri – X – XIII asrlarni aynan **Irfon davri** deb atashadi. Aslini olganda, barcha tariqatlar, so‘fiylarning maqsadi Haq va haqiqatni tanish edi, ya’ni zohid so‘fiy ham, orif so‘fiy ham, oshiq so‘fiy ham, rind so‘fiy ham Haqqa yetishish, Uni topishni istaydi, ammo orif ularga nisbatan chuqur mushohada va yuksak ma’rifat sohibi, ichki tamkin va mulohaza sohibi ekani bilan farqlanib turadi.

Irfon (عرفان) maxsus atama sifatida tasavvuf terminlari orasida muhim o‘rin tutadi. Uning istilohiy ma’nolari borasida ko‘plab qarashlar mavjud bo‘lib, ba’zan irfon – Haqni tanimoq, bilmoq tarzida, ba’zan esa kashf-u shuhud vositasida narsalar mohiyatidan ogoh bo‘lish tarzida izohlanadi. Irfon ikkinchi ma’nosida tasavvufga nisbatan kattaroq tushuncha bo‘lib, umuman bilish jarayonini anglatadi va tasavvufni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Tasavvuf adabiyotida irfon deb Haqni tanish, ilohiy ma’rifat hosil qilishga nisbatan aytiladi va uning uch darajasi farqlanadi: 1) Ommaning irfoni (irfoni omma); 2) Xoslar irfoni (irfoni xossa); 3) Xoslar xosining irfoni (irfoni xos al-xossa). Shuningdek, irfon hosil bo‘lish usuliga ko‘ra ikki turga ajratiladi: 1) Irfoniy kasbiy (o‘rganib hosil qilingan bilim); 2) Irfoni kashfiy (aqlga tayanmay, kashf yo‘li bilan hosil qilingan bilim). Adabiy asardagi irfoniy mazmunni tadqiq etishda mazkur darajalar va turlarni asos sifatida qarash darkor.

Orif tasavvuf istilohi sifatida irfon, ilohiy ma’rifat sohibi, Haqni kashf-u mushohada yo‘li bilan tanigan, bu tanitishni Haqning o‘zi ixtiyor etgan inson bo‘lib, *orif* va *orifibillah* atamalari ma’nodoshdir. Olim va orif o‘rtasidagi farq shuki, olim ilmni tahsil va o‘rganish orqali egallasa, orif irfonga ilhom va hol, mukoshafa va mushohada orqali yetishadi. Orif erishgan bilim ma’rifatulloh ham deyiladi. Orif deb

so'fiylikda komil bo'lgan, Haqdan o'zgasini tilamaydigan insonni aytishadi. Orif shaxsiga xos mazkur sifatlar tasavvuf adabiyotidagi orif obrazi shakllanishida ham asos vazifasini bajargan.

Irfonning uch turi (irfoni omma, irfoni xos, irfoni xos ul-xos) va uch darajasi (ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin, haq ul-yaqin) haqidagi qarashlardan kelib chiqib muhim bir jihatga e'tibor qaratmoq lozim. Irfon keng tushuncha bo'lib, zohiriy bilimlar, sha'riy hukmlar haqidagi bilimlar ham irfon, qalbning mushohada yo'li bilan haqiqiy vahdatni ko'rishi va shu yo'l bilan egallangan ilmi ham irfon, solikning hol va mushohada tufayli Haqda foniy bo'lish va Haq bilan boqiy qolishidan hosil qilgan ma'rifati ham irfon. Xullas, Haqni tanishga sabab bo'ladigan barcha bilimlar, hol va maqomlardagi kechinma, taassurotlar, ixlos-u ishonchlar irfoni tashkil etadi. Irfon – Haq oshig'ini, talabgorini maqsadga yetishtirishda vosita bo'luvchi barcha bilimlardir. Adabiy asarlardagi irfoniy ma'no talqinida muallifning irfon turlari va bosqichlariga nisbatan mavqeyini albatta inobatga olish zarur. Bu faslda mana shu mantiqdan kelib chiqib Lutfiy she'riyatida irfon turlaridan xoslar irfonini, irfon darajalaridan ayn ul-yaqin darajadagi irfoni badiiy talqin etgani ochib berilgan.

Dastlabki bobning ikkinchi fasli *“Irfoniy talqinning turkiy adabiyotdagi adabiy-estetik ildizlari”* deb nomlangan. Ushbu faslda Mavlono Lutfiy ijodi, xususan, undagi irfoniy qarashlarga zamin bo'lgan adabiy-estetik asoslar ikki qismga tasniflab tadqiq etildi. Bunda birinchi qism sifatida Lutfiygacha bo'lgan ijodkorlarning asarlari va ulardagi islomiy-ma'rifiy qarashlar talqini, ikkinchi qismda esa Lutfiyga zamondosh bo'lgan ijodkorlar asarlaridagi talqinlar o'rganildi. Irfoniy talqinning turkiy adabiyotdagi dastlabki adabiy-estetik asoslari Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Nosiruddin Rabg'uziy kabi ijodkorlar asarlarida uchrashi, keyingi adabiy-estetik asoslari Atoyi, Gadoiy, Sayyid Qosimiy, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Alisher Navoiy kabi Lutfiyga zamondosh ijodkorlar asarlarida ko'zga tashlanishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Ma'lumki, tasavvuf ta'limoti g'oyalarining turkiy adabiyotga ta'siri islom dinining turkiy adabiyotga ta'siri masalalari doirasiga kiradi. Islom dinining turkiy yoxud o'zbek adabiyotiga ta'siri yo'nalishlarini, asosan, quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Mavzu va masalalar jihatidan ta'sir.
2. Motiv, timsol va qahramonlar jihatidan ta'sir.
3. Payg'ambarlar qissalarining adabiyotda qo'llanilishhi jihatidan ta'sir.
4. G'oyaviy-mazmuniy jihatdan ta'sir.

Islom dinining turkiy adabiyotga ta'sir yo'nalishlarini ko'rsatuvchi ushbu tasnif voqean tasavvufning adabiyotga, xususan, o'zbek adabiyotiga ta'sirini ham ko'rsata oladi.

XV asrning birinchi yarmi shoirlari ijodida din va tasavvuf bir-birini to'ldirdi, mantiqan uyg'unlashdi va islom tasavvufining ma'no va timsollari juda chuqur anglangan, his qilingan holatda bu davr she'riyatida aks etdi. Lutfiy ijodida ham XV asrgacha bo'lgan turkigo'y shoirlar qo'llagan bir qator mavzu va obrazlarning ta'siri ko'zga tashlanadi. Ushbu ta'sir jarayoni yo'nalishlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin: 1) Oyatlar, mashhur hadislar va me'roj bilan bog'liq timsollar tasvirida; 2) Axloqiy-didaktik, ta'lim-tarbiyaviy, ma'rifiy qarashlarda; 3) Tabiat bilan bog'liq lavha

va detallar talqinida; 4) Mashhur xalq maqol va masallaridan, turkiy tildan foydalanishda; 5) Tasvir yo'sini va badiiyatida (san'atkorlikda); 6) Majoziy ishq talqinida. Lutfiy she'riyatida shu va shunga o'xshash masalalarda ta'sir izlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Irfoniy va tasavvufiy qarashlarni ifoda etgan asarlarda adabiy-estetik qarashlar umumiy bo'lsa-da, ammo har bir shoir ijodida o'z uslubi, yondashuvi, dunyoqarashi asnosida turlicha aks ettirilgan. Lutfiy ijodidan bahramand bo'lar ekanimiz adib g'azallari yuksak irfoniy mazmun va saviyaga ega ekanini ko'ramiz va shoirning ham dunyoviy, ham irfoniy bilimlar sohibi ekanligini anglaymiz. Bunda, shubhasiz, Lutfiy davri va ungacha bo'lgan vaqt mobaynida shakllangan ham turkiy, ham forsiy adabiyotdagi adabiy-estetik qarashlar, tajribalar asos bo'lib xizmat qilgan.

Mavlono Lutfiy ijodkor sifatida o'z davrigacha bo'lgan adabiy-estetik muhitdan oziqlanib kamolga yetdi. Asarlarida Lutfiyona joziba, soddalik va ravonlik, so'zlarning baytlarda marjondek tizilishi, irfoniy obrazlar va tasavvufiy timsollarning o'z o'rnida qo'llanishi – adibning yuksak estetik talablarga javob bera oladigan maktablardan tahsil olganligini ko'rsatadi. Lutfiy va unga asrdosh shoirlarning ulkan ma'naviy me'rosi Novoiydek daholarning yetishuviga sabab bo'lgani ham haqiqat. Lutfiydek ulug' mutasavvif shoirning so'z mulkinging sultoni bo'lib yetishuvi – O'rta Osiyoda ma'naviy hayot va badiiy-estetik tafakkur, irfoniy ruhdagi qarashlar chuqur ildiz otganligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning II bobi **“Orifona dunyoqarash va uning obrazlardagi in'ikosi”** deb ataladi. Bobning ilk fasli *“Lutfiy – orif shoir”* deb nomlangan. Ushbu faslda Mavlono Lutfiy orif shoir bo'lgani masalasi uning hayot tarzi, axloqi, ijodi va zamondoshlarining u haqdagi qarashlari asosida ochib berishga harakat qilingan. Lutfiyning suluk o'tagani, uning qaysi sulukka mansubligi XV asr manbalari, shoirning ustozlari haqidagi ishonchli ma'lumotlar asosida oydinlashtirilgan.

Mavlono Lutfiyning ulug' shoir bo'lgani borasida deyarli ixtilof yo'q. Ammo Lutfiyning orif shoirliigi masalasida bahslar mavjud. O'tgan asr adabiyotshunosligida Lutfiy zamondoshlari kabi dunyoviy muhabbat kuychisi degan qarash hukmronlik qildi. Lutfiyshunoslikdagi aksar tadqiqotlarda shoir dunyoviy ishq kuychisi, mohir so'z ustasi, xalqona va sodda she'rlar ijodkori sifatida talqin etildi. Shu va shunga o'xshash mazmundagi qarashlarda muayyan asoslar bor, albatta. Lekin aksar tadqiqotlarda Lutfiy she'riyatining eng muhim jihati – ma'rifiy mazmuni va ahamiyati chetlab o'tildi. Lutfiyning orif shoir bo'lganini, avvalo, shoirning hayot tarzi, so'ngra ijodi to'la tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy asarlari va boshqa manbalardagi ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Lutfiy ham *zohiriy*, ham *botiniy* ilmlarni o'rgangan, tasavvuf shayxi Shihobiddin Xiyoboniy huzurida rasman suluk o'tagan. Agar *botin ilmi* deganda irfon, ma'rifat, *botin ahli* deganda so'fiylar nazarda tutilishini inobatga olganda ham Lutfiy rasman suluk o'tagan, ham irfon sohibi, ham so'fiy bo'lgan deb aytish mumkin. Navoiy suluk qilgani va ma'rifat ahlidan bo'lgani bois Lutfiy “aziz va tabarruk... darvesh kishi erdi” deb alqaydi. “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida esa Lutfiy bir umr shoirlik va so'fiylikni birgalikda olib borganini aniq qayd etadi. Tariqat odobiga rioya qilgan, suluk o'tagan va bunday hayot tarziga bir umr amal qilgan insonning yozgan asarlari,

xususan, she'riyatida ilohiy ma'rifatga zid keluvchi yoxud ilohiy ma'rifatdan ayro talqin-u tasvirlarni uchratish amri mahol.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning qayd etishicha, Lutfiy Shihobiddin Xiyoboniy ismli shayx huzurida suluk o'tagan. Shihobiddin Xiyoboniyning asl ismi Shihobiddin Bistomiy bo'lib, uning tug'ilgani yili ma'lum emas, ammo 1420-yilda (yoki 1404-yilda) vafot etgani ma'lum. Bu shaxs Shihobiddin Xiyoboniy nomi bilan tanilgan. Temuriylar davrida Hirotda yashab o'tgan olim va so'fiylardan hisoblanadi. Ismiga "Bistomiy" nisbasining qo'shib aytilishiga qaraganda Bistom ahlidan bo'lgan yoki bir muddat u yerda istiqomat qilgan, yoki oilasi bistomliklarga mansub bo'lgan. U dastlab diniy bilimlarni egallagan, Qutbiddin Yahyo Jomiy, Qavomiddin Bistomiy, Jaloliddin Kirmoniy kabi hanafiy mazhabdagi ustozlar huzurida hadis va fiqh ilmlarini o'rgangan. Keyinchalik zuhd qilib, so'fiylar sulukiga kirgan va bu maqomda shuhrat tutgan. Uning shuhrati va martabasi ko'plab muridlarni o'ziga jalb etgan, hatto, Amir Temurdek kishilarning ham e'timod va ehtiromiga sazovor bo'lgan. Shihobiddin Xiyoboniyning qaysi tariqatga mansub bo'lgani hozircha uzil-kesil aniq emas, lekin tarixiy sharoit va manbalardagi ma'lumotlar u katta ehtimol bilan naqshbandiya tariqatiga mansub bo'lganini tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy Lutfiy qanday shoir bo'lgan degan savolga javoban Lutfiyning aynan irfoniy mazmunga asoslangan quyidagi matlasini keltiradi:

*Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg'ali,
Ko'zgudek qildi seni o'zini paydo qilg'ali.*

Lutfiyning ushbu matlasida aynan ilohiy ma'rifat – Haqni tanish, yaratilarda Haq jamolining jilvalanishini mushohada qilish borasidagi qarashlar badiiy ifoda etilgan. Navoiy aynan shu mazmundagi baytni saralab olib uni "bu toifa mashrabining choshnisi" – bu toifa xulqining ifodasidir deydi. Navoiy ushbu munosabat orqali, bir tomondan, Lutfiy orif shoir ekanligini tasdiqlagan bo'lsa, boshqa tarafdin, majoz yoxud vosita orqali Haqni tanishga chorlov, yorning yuzi ko'zgusi orqali Haqni mushohada qilish – orif shoirlarning asosiy ijodiy prinsiplaridan ekanligini ma'lum qilgan. Agar Haqni tanishning bu tarzi irfonning darajalariga nisbatan olinsa, u irfoni xos – xoslar irfoniga to'g'ri keladi. Navoiyning munosabati va Lutfiy she'riyati tadqiqiga tayanib xulosa qilish mumkinki, Lutfiy – o'z she'larida, asosan, xoslar irfonini kuylagan va bunda "yor jamoli vositasida Haqni mushohada qilish" yo'lidan borgan. Mavlono she'riyatidagi ishq talqinini ayni mana shu ifoda tarziga muvofiq tushunish va tushuntirish lozim.

Bobning ikkinchi fasli "*Shoir she'riyatida orif obrazi*" deb nomlangan. Bu faslda Lutfiy she'riyatidagi islomiy-irfoniy mazmunni namoyon etuvchi eng asosiy obraz – orif obrazi tahlil etilgan. Lutfiy lirik qahramonining orifona qiyofasi, dunyoqarashi va kechinmalari, dardlari shoirning hamd, na't va boshqa orifona g'azallari misolida ochib berildi.

XV asr birinchi yarmidagi o'zbek adabiyoti vakillari ham tasavvuf ta'limoti va adabiyoti ta'sirida ijod qilishdi, ular yaratgan asarlar tili, uslubi va obrazlar olamida ana o'sha ta'sirning izlari yaqqol namoyon bo'ladi. E.Rustamov bu davr she'riyatining asosiy mavzulari xususida to'xtalib shunday yozadi: "XV asr birinchi yarmi o'zbek shoirlari g'azallarining asosiy mazmunini, Hofiz va Kamol Xo'jandiy g'azallarida bo'lganidek, insoniy muhabbat tashkil etadi. Sakkokiy, Atoy, Lutfiy g'azallari, Hofiz

va Kamol Xo‘jandiy g‘azallari singari o‘zining lirizmi, samimiyati bilan o‘quvchini hayratga soladi”¹⁵. Zukko olimning ushbu xulosasi bu davr, xususan, Lutfiy she‘riyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, olim nazarda tutgan insoniy muhabbat haqiqatan Lutfiy she‘riyatida asosiy mavzu hisoblanadi, ammo bu “insoniy sevgi” mohiyatan o‘tgan asrda aytilganidek dunyoviy yoxud avom ishq emas, balki xoslar ishqini ifodalaydi. Xoslar ishq ham majozga tayangan ishq bo‘lib, unda ham inson boshqa insonni pok muhabbat bilan sevadi, faqat sevgi qaratilgan obyekt mazhar – Alloh jamoli, nuri jilva qilgan qilgan inson hisoblanadi. Boshqacha aytilsa, inson insonni Alloh uchun, Haq mushohadasi uchun sevadi. Majnun va Farhod muhabbati shunday ishqning yorqin namunasi sanaladi. Bu ishq manbalarda majoziy ishq – insonning insonga muhabbati deb ham ataladi. Ikkinchidan, E.Rustamov qiyos uchun tilga olgan Hofiz Sheroziy va Kamol Xo‘jandiylar fors she‘riyatida ilohiy muhabbat, irfoniy ma‘nolar kuychisi sifatida tanilgan. Hofiz Sheroziyning rindona g‘azaliyoti dunyo adabiyotshunosligida ilohiy shavq-u zavq, irfoniy muhabbat ifodasi sifatida e‘tirof etilgan. Shu ma‘noda, E.Rustamovning Lutfiy ijodining mazmun va mavzu mundariyasi Hofiz va Kamol she‘riyatini kabidir, degan qarashi juda o‘rinlidir.

Adabiyot va tasavvufning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan muhim obrazlardan biri orif obrazidir. XIV – XV asrlarda ijod qilgan ko‘plab shoirlar qatori Lutfiy ham o‘z she‘rlarida irfoniy ma‘nolarni badiiy ifodaladi. Lutfiyning lirik qahramoni bir qarashda faqat telba oshiqdek ko‘rinsa-da, u o‘rni-o‘rni bilan ilohiy ma‘rifatdan so‘z ochadi, dunyoning mohiyati va Haqqa yetishish asroridan ta‘lim beradi. Olam va undagi narsalarni anglash orqali Yaratgan qudrati va azamatini idrok etishga, ma‘nan yuksalishga undaydi:

*Soching salosili Lutfiyni chekti haq sori,
Majoz ulandi haqiqatqa, muntaho bo‘ldi*¹⁶.

Ya‘ni, (ey yor) soching zanjiri Lutfiyni Haq tomon tortdi, shu bois majoz haqiqatga ulanib, muntaho (hosil) bo‘ldi.

Bu baytning yuzaki mazmuni. Uni Lutfiy nazarda tutgandek tushunish uchun soch, majoz, haqiqat va muntaho atamaları anglatadigan ramziy ma‘nolarni bilish lozim.

Soch salosili – soch zanjiri, umuman, zulf deganda so‘fiylar, odatda, jamoliy sifatlar va jaloliy tajalliyotni nazarda tutishadi, chunki u Mutlaq jamolga yetishishdan to‘sib turadi. Ayrim so‘fiylar soch deganda ilohiy jazbani ham nazarda tutishgan. Ba‘zan kufr zulmati, shariat uqubatlari, tariqat mushkulliklari, haqiqat mashaqqatlari ham zulf deb ataladi¹⁷.

Haqiqat – Alloh, baqo, oxirat. Haqning solikdan sifatlarini ko‘tarib o‘rniga O‘z sifatlarini qo‘yishini ham shunday nomlashadi¹⁸.

Majoz – haqiqatga yetishish vositasi, ko‘prigi; foniy, o‘tkinchi; dunyo ma‘nolari ham mavjud¹⁹.

¹⁵ Rustamov Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – Москва: ИВЛ, 1963. – С. 112.

¹⁶ Лутфий. Девон. Нашрга тайёрловчи С.Эркинов. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 300.

¹⁷ Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 6. – Tehron: Zavvor, 1380. – S. 169.

¹⁸ Uludag‘ Suleyman. Tasavvuf terimlari so‘zlugi. – Istanbul: Kabalci, 2016. – S. 152 – 153.

¹⁹Shu muallif. Ko‘rsatilgan asar. – S. 239.

Muntaho – intiho, yakun demak yoki muntahiy yetishgan maqomning nomi. Muntahiy deb suluk darajalarini bosib o‘tgan, komil shayx nazorati ostida tariqat maqomlarini mukammal o‘tagan, haqiqiy tavhid va hayotiy ma’rifatni qo‘lga kiritgan kishidir. Bunday shaxslar “arbobi nihoyat” deb atalgan. “Arbobi nihoyatning zohir-u botini Xudo bilan istiqomat qiladi, ruhlari nafs zulmatidan xalos bo‘ladi, qurb bisotida qadam bosadi, jonlari oliy maqomga taalluqli bo‘ladi, hoy-u havas otashidan sokin bo‘ladilar, botinlariga ilm singdirilgan bo‘ladi, ular uchun oxirat ma’lum bo‘ladi”²⁰. Qisqasi, muntahiy – tasavvuf shayxi, piri komil bo‘lib, u bir umr intilgan maqomi – haqiqatga yetishgan, shu bois u yetishgan maqom muntaho (intiho) deyiladi.

Mazkur timsollarning so‘fiyona ma’nolaridan kelib chiqilsa, Lutfiy yuqoridagi baytda shunday degani oydinlashadi: Ey yor, ilohiy tajalli, jazba (soching salosili) meni Alloh tomon yetakladi, shu tariqa o‘tkinchilik, fano (majoz yo‘qolib) Allohga, baqoga (haqiqatga) ulandi, oqibatda tavhid, oliy haqiqat (muntaho) hosil bo‘ldi.

Mana shunday irfoniy ma’nolarni she’rlari qatiga singdirgan va bu haqda yuqoridagi baytda bo‘lganidek aniq ishoralar bergan shoir – Lutfiy ijodini irfoniy ma’nolar nuqtayi nazaridan tahlilga tortish, shoir ijodidagi orif obrazi namoyon bo‘lgan o‘rinlarni o‘rganish mavjud qarashlarni to‘ldirishi, ayrimlarini yangilashi va ijodkor ko‘zda tutgan asl haqiqatni ro‘yobga chiqarishi bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Bu, shubhasiz, Lutfiy she’riyatiga yangicha va o‘zgacha nigoh bilan qarashni taqozo qiladi.

Lutfiy she’riyatidagi orif obrazi ilohiy ma’rifat sohibi, Haqni kashf-u mushohada yo‘li bilan tanigan, hamisha ilhom va hol, mukoshafa va mushohada girdobidagi inson. U tariqatda komil, Haqdan o‘zgasini tilamaydigan, faqat diydor talabidagi shaxs. Ta’kidlash kerakki, Lutfiy she’riyatidagi hamd va na’t g‘azallarda, orifona va rindona g‘azallarda shoir tasviridagi orif obraziga xos jihatlar ancha yaqqol namoyon bo‘ladi. Oshiqona she’rlarida esa lirik qahramonning orifona qiyofasi muayyan baytlarda namoyon bo‘ladi.

Lutfiy ijodida orif obrazi hamd, na’t, maviza kabi g‘azallarda yorqin namoyon bo‘ladi, biroq biz shoirning aksar g‘azallarida oshiq-orif obrazi tasviriga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni Lutfiyning lirik qahramoni har qancha ishqda iztirob chekmasin, u ayni paytda ilohiy ma’rifat sohibi hamdir. Boshqacharoq aytilsa, Lutfiyning lirik qahramoniga xos orifona qarashlar ham muhabbat iztiroblari fonida ifodalanadi.

Dissertatsiyaning III bobi **“Lutfiy she’riyatida irfoniy timsollarning poetik vazifasi”** deb nomlanadi. Bobning ilk fasli *“Orifona timsol va tushunchalar talqini”* deb atalgan. Ushbu faslda Mavlono Lutfiy she’riyatida faol foydalanilgan orifona timsol va tushunchalar – kufr, imon, Ka’ba, zulf, ko‘z, yuz, but, tarso kabilar manbalar asosida tadqiq etilgan. Ularning shoir she’riyatida bajargan badiiy vazifasi yoritib berilgan.

Ma’lumki, tasavvufiy timsollarning majoziy va haqiqiy ma’nolarini yaxshi bilmay turib XV asr birinchi yarmi o‘zbek she’riyati mohiyatini to‘g‘ri talqin qilib bo‘lmaydi. Bu davr shoirlari “majoz tariqi bila haqiqat asrorini kuylagan” (Alisher Navoiy). Ayni jihat bu davr o‘zbek adabiyotida yaratilgan g‘azallarda turli ramziy-majoziy timsollar, obrazlar, turli tasvir vositalari bilan ziynatlashni taqozo etardi.

²⁰ Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 9. – Tehron: Zavvor, 1380. – S. 368 – 369.

Mavlono Lutfiy she'riyatida qo'llangan tasavvufiy timsollar va tushunchalarni mazmun jihatidan quyidagi turlarga ajratib o'rganish mumkin: 1) Diniy-ma'rifiy atamalar (Alloh, iymon-kufr, Ka'ba, azal-qiyomat, Kavsar suvi, mehrob, qoba qavsayn, laylatul me'roj, ravza, jannat-do'zax, but, tarso (tarsobacha), zunnor, pir kabi); 2) Borliq va tabiat ashyolari bilan bog'liq atamalar (falak, olam, mavjudot, samoviy jismlar (quyosh kabi), gul, bulbul, parvona, bulut, qatra, xas kabi); 3) Tana a'zolari bilan bog'liq atamalar (zulf, ko'ngil, qosh, ko'z, dudoq, yuz, ir, og'iz, lab, bel, yanoq kabi); 4) May bilan bog'liq atamalar (boda, may, mayxona, soqiy, sharob, jom, mug'bacha kabi); 5) Turli narsa-buyumlar bilan bog'liq atamalar (ko'zgu, ko'z yoshi, nur, burqa kabi). Ushbu tasnifning o'ziyiq Lutfiy she'riyatida irfoniy timsol va tushunchalar naqadar katta va muhim o'rin tutishini ko'rsatib bera oladi.

Lutfiy o'z ijodida diniy-ma'rifiy tushuncha va atamalar, timsollarga tez-tez murojaat etadi. Ulardan o'zining lirik kechinmalari ifodasida mahorat bilan foydalanadi. Jumladan, Lutfiy she'riyatida faol bo'lgan diniy-ma'rifiy tushunchalardan biri kufrdir. Shoir she'riyatida kufr tushunchasi eng ko'p zulf timsoli bilan aloqador holda tasvirlanadi. Lutfiy uni aksar o'rinda shar'iy mazmuniga zid kelmaydigan tarzda va so'fiyona ma'nolardan "kufr – tafriqa (Haqdan chalg'ish) olamining qorong'uligi", ilohiy sifatlar zuhuri ma'nosida talqin etadi. Lutfiy kufr tushunchasini ba'zan shar'iy talqinda emas, balki undan ham daqiqiroq ma'noda – Haqdan chalg'ituvchi, Haqqa yetishishdan to'suvchi har qanday narsa kufr, zalolatdir, degan ma'noda talqin qiladi. Shoir she'riyatida imon "ma'rifatulloh, yaqin", shuningdek, "uluhiyatni tamosho qilmoq, vuslat darajasiga yetishmoq, Bir (Haq)dan boshqasini ko'rmaslik"²¹ ma'nolarini, yuz bo'lsa "solikka g'ayb holida voqe bo'lgan Haq tajallilari"²² ma'nosini anglatadi.

Lutfiy ba'zan she'rlaridagi orifona timsollar mazmunini o'zi sharhlab beradi:

*Zihi zuhuri tajalli yuzung safosinda,
Savodi kufr muayyan ko'zung qarosinda*²³.

Shoir ushbu baytda kufrni soch qorasi bilan emas, balki ko'z qorasi timsolida ifodalaydi. Uning qayd etishicha, yor yuzi safosida (ilohiy) tajalli zuhur (in'ikos) etsa, ko'zining qorasida kufr zulmati (maqsaddan chalg'ituvchi narsalar) ayon bo'lib turadi. Lutfiy shu tariqa o'rni bilan o'zi faol murojaat etgan timsollar va tushunchalar ma'nosini sharhlab beradi. Bunday sharhlar, albatta, tahlillarda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Lutfiy she'riyatida eng faol tasvirlangan tasavvuf timsollari inson a'zolari bilan bog'liq timsollardir. Ular orasida ayniqsa yuz, zulf, ko'z, qosh, lab timsollari juda faol. Bu timsollarning har birini alohida-alohida tadqiq etish mumkin, chunki Lutfiy she'riyati shunday yondashuvga bema'lol material beradi. Lutfiyning shunday she'rlari borki, ularda tana a'zolari bilan bog'liq butun boshli timsollar tizimi tasvirga jalb etiladi, inson tana a'zolari bilan bog'liq irfoniy timsollar galereyasini o'zida mujassam qiladi. Lutfiy she'riyatida mavjud bo'lgan ana shunday she'riy asarlardan biri "Yuzungizda ug'on nuri ayondur" deb boshlanuvchi g'azaldir.

²¹ Uludag' Suleyman. Tasavvuf terimlari so'zlugi. – Istanbul: Kibalci, 2016. – S. 185.

²² Shu muallif. Ko'rsatilgan asar. – S. 94.

²³ Лутфий. Девон. Нашрга тайёрловчи С.Эркинов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 242.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “*Ko’ngil va u bilan aloqador timsollar tasviri*” deb nomlangan. Ushbu faslda Lutfiyning ko’ngil timsoliga oid tasvirlari badiiyati, shuningdek, bu timsol bilan ko’pincha birga keluvchi yondosh timsollar talqini o’rganilgan. Ko’ngil va u bilan bog’liq timsollarning irfoniy mazmuni yuzaga chiqarishdagi ishtiroki va o’rni belgilangan. Ko’ngil timsoli Lutfiyning irfoniy-badiiy konsepsiyasi tasvirida muhim o’rin tutishi asoslangan.

Avvalgi faslda irfoniy adabiyotining o’ziga xos obraz va timsollar tizimi mavjudligi qayd etildi. Bu tizimning markazida orif obrazi tursa, yana bir qancha obrazlar: zarra – oftob, Fir’avn – Muso, odam va dunyo, soch va yuz, qatra va dengiz kabilar uni qurshab turadi. Mazkur tizimda muhim o’rin tutuvchi timsollardan biri, shubhasiz, ko’ngildir. Ushbu timsolning ma’no ifodasidagi poetik vazifasini to’laqonli idrok etish uchun unga yuklatilgan irfoniy ma’nolarni va u bilan bog’liq atamalar mohiyatini teran bilish zarur.

Tariqat ahli nazdida inson “ko’ngil uyini riyozat supurgisi bilan chang-u g’ubor, chiqindilardan tozalab turmoq lozim, toki ko’ngil ishq sultoni o’tiradigan taxtga aylansin... Madomiki, ko’ngil dunyo taalluqoti – tashvishlari g’avg’osidan qutulmas ekan, u Do’st muhabbatining makoniga aylanmaydi” (Husayn Voiz Koshifiy). Tasavvuf ahlining ko’ngil borasidagi ayni qarashi mumtoz adabiyot, xususan, Lutfiy ijodidagi ko’ngil timsoli tasvirida asos bo’lib xizmat qilgan.

Ko’ngil turkiycha nom bo’lib, u fors tilida *dil*, arab tilida esa *qalb* deb ataladi. Dil tasavvufda “nafsi notiqa, sirlar xazinasi, Alloh nazar qiladigan o’rin, ilohiy kamol va jamol eng go’zal shaklda tajalli etadigan joy”²⁴ ma’nolarini bildiradi. Tasavvuf adabiyotida qalb deyilganda ham “ma’rifat va irfon deb atalgan bilimning manbayi, kashf va ilhom makoni; ilohiy kenglik (vus’ati ilohiy), Allohning uyi, makoni va yer-u ko’kka sig’magan Alloh siqqan manzil”²⁵ tushuniladi. Manbalarda qalbning yetti tavlari borligi qayd etiladi: “1. Sadr, ko’ks – islom javharining makoni; 2. Qalb, yurak – iymon javharining makoni; 3. Shigaf – sevgi, xalqni sevish va ular uchun qayg’urish javharining makoni; 4. Fuod, ko’ngil – tamosho makoni; 5. Hibbat ul-qalb – Haqqa yo’nalgan muhabbat makoni; 6. Suvaydo, savdo – g’aybni kashf etish makoni; 7. Muhjat ul-qalb – ilohiy nurlar tajalli etadigan joy”²⁶. Ayrim manbalarda mazkur qalb atvori “parda” deb ataladi va ularning soni yettita emas, to’rtta ekani ko’rsatiladi²⁷. Qisqasi, irfoniy mazmundagi adabiyot namunalari ko’ngil mana shunday daqiq ma’nolar tashuvchi timsol hisoblanadi.

Ushbu faslda Lutfiyning ko’ngilga oid tasvirlari ko’ngilning azaliy oshiqligi, ko’ngil – Ka’ba, ko’ngil – ilohiy asror xazinasi, ko’ngilning ilohiy muhabbat dardi bilan dardmand, Haq diydoriga mushtoqligi jihatidan tadqiq etildi. Masalan, Lutfiy quyidagi baytida ko’ngil ilohiy asror xazinasi ekanini shunday tasvirlaydi:

*Irning xayolin gar nihon tutsam ko’ngulda, ne ajab,
Muflis kishi topsa guhar yoshurmog’i nochor erur*²⁸.

²⁴ Uludag’ Suleyman. Tasavvuf terimlari so’zligu. – Istanbul: Kbalci, 2016. – S. 107.

²⁵ Shu muallif. Ko’rsatilgan asar. – S. 205.

²⁶ Uludag’ Suleyman. Tasavvuf terimlari so’zligu. – Istanbul: Kbalci, 2016. – S. 205.

²⁷ Sajjodiy Saidja’far. Farhangi istilohoti va ta’biroti irfoniy. – Tehron: Tahuriy, 1370. – S. 388.

²⁸ Лутфий. Девон. Нашрга тайёрловчи С.Эркинов. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 75.

Tamsilning go‘zal namunasi bo‘lgan ushbu baytda irfoniy ma’nolar oshiqona ruhda talqin etilgan. Baytdagi “irn” so‘zi lab, dudoq ma’nosini bildiradi. *Lab* so‘fiyona atama bo‘lib, ma’rifiy mazmundagi “so‘z, kalom”ni bildiradi. Shunga muvofiq *labi la’l* (qirmizi lab) “sevgilining so‘zi va undagi chuqur ma’no”ga, *labi shakar* esa “malaklar vositasida payg‘ambarlarga, qalbni poklash orqali valiylarga kelgan so‘z”ga, *labi shirin* bo‘lsa “idroki va his etilishi mumkin bo‘lgan, ammo vositachisiz kelgan so‘z (ilhom), sevgilining so‘zi”²⁹ga ishora hisoblanadi. Umuman olib qaraganda, lab – ilohiy ma’rifat, hikmat, sir-u asror, kashf-u ilhom ma’nolarini o‘zida tashiydi. Yuqoridagi baytda lirik qahramon ayni ma’nolarni nazarda tutib “Agar ilohiy ma’rifating, so‘zlaring (labing) yodini ko‘ngilda maxfiy tutsam, buning hecham ajablanadigan joyi yo‘q, chunki faqr kishi gavhar topsa, yashirmoqdan o‘zga chorasi bo‘larmidi?!” demoqda. Lirik qahramon baytda, birinchidan, Haq yodi, ma’rifati, qalb tasfiyasi tufayli kelgan kashf-u ilhomni ko‘nglida saqlanishini aytgan bo‘lsa, ikkinchidan, ko‘ngil – ilohiy asror saqlanadigan xazina ekanini ta’kidlamoqda. Uchinchidan, o‘zini “mufliis” – bechorahol deb ataydi, ammo uning mufliisligi, bechoraligi lab (ilohiy ma’rifat)ga nisbatan bo‘lib, bunday kishilar tasavvufda faqir deb ataladi.

Lutfiy she’riyatidagi ko‘ngil obrazi – ilohiy muhabbatga oshno, ma’rifatga tashna va muntazam dard-u azob iskanjasida o‘rtanuvchi, bir lahza bo‘lsin asl maqsadidan tonmaydigan qahramon. U ba’zan sokin, ba’zan g‘alayonli, ba’zan mushohadakor, ba’zan telba. U erkli sulton va asl maqsadi – mazhar orqali Haqni mushohada qilishda aqlning hech bir nasihatiga quloq tutmaydi. U butun borliqdan, ayniqsa, yorning har bir a’zosidan ilohiy haiqiqatlarni, Yaratgan hikmatini idrok etishga intiladi. U o‘zining oshiqliqi, yorga muhtaloligi azaliy qismat ekanini tushunib yetgan va “Allohning uyi”, tajalligohi degan sharafli maqomga munosib bo‘lishga intiladigan timsoldir. Bu kabi ta’birlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mutasavvif ijodkorlar nazdida dil – ilohiy asror (ma’rifat) xazinasini hisoblanadi. O‘z-o‘zidan, xazina – ilohiy asrorning tamsili hisoblanadi.

Bizningcha, Lutfiydek orif shoirning ko‘ngil borasida yozganlarini ayni irfon deb qarash kerak hamda she’riyatidagi ko‘ngil obrazining prototipi Lutfiyning o‘z ko‘ngli ekanini ham ta’kidlash zarur.

XULOSA

1. Islom ta’limoti asosida yuzaga kelgan tasavvuf dastlab zohidlik ko‘rinishida yuzaga kelib, so‘ngra oshiqlik, oriflik ko‘rinishida takomil topdi. Ammo hamma bosqichlarda ham tasavvufning asosiy masalasi irfon – ilohiy ma’rifat bilan Haqni tanish, kashf-u shuhud bilan borliqni mushohada qilish, yaratilishning mohiyatini idrok etishga harakat bo‘lib qola berdi. Shu bois tasavvufning eng klassik davri X–XIII asrlar aynan **Irfon davri** deb ataladi. Aslini olganda, barcha tariqatlar, so‘fiylarning maqsadi Haq va haqiqatni tanish edi, ya’ni zohid so‘fiy ham, orif so‘fiy ham, oshiq so‘fiy ham, rind so‘fiy ham Haqqa yetishish, Uni topishni istaydi, ammo orif ularga nisbatan chuqur mushohada va yuksak ma’rifat bilan, ichki tamkin va mulohaza sohibi ekani

²⁹ Uludag‘ Suleyman. Tasavvuf terimlari so‘zlugi. – Istanbul: Kibalci, 2016. – S. 228.

bilan farqlanib turardi. Irfon davriga xos mazkur xususiyatlar uning g'oyalari ta'sirida yaratilgan adabiyot namunalarining ham eng xarakterli jihatiga aylangan.

2. Tasavvuf adabiyotining vujudga keltirgan islomiy-ma'rifiy asoslar hijriy VIII asr o'rtalaridan shakllana boshlagan tasavvuf ta'limotida mujassam bo'lgan. Bu borada ayniqsa X–XIII asrlarda shakllangan tasavvufning oriflik davri (irfon bosqichi) alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda zohiriy ibodat, riyozat, mujohada tarzidagi so'fiyona hayot zohirdan botinga yuzlandi, ruhiy poklik va Haqqa yetishish asosiy g'oyaga aylandi. Tabiiyki, ushbu g'oya bu davr g'oyalari kuylagan adabiyotning ham asosiy masalasiga aylandi. Mavlono Lutfiy ham o'z ijodida tasavvuf ta'limotining oriflik davriga xos qarashlarni badiiy talqin etgan.

3. Adabiy asarlardagi irfoniy ma'no talqinida muallifning irfon turlari va bosqichlariga nisbatan mavqeyini albatta inobatga olish zarur. Irfonning uch turi (irfoni omma, irfoni xos, irfoni xos ul-xos) va uch darajasi (ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin, haq ul-yaqin) haqidagi qarashlardan kelib chiqib irfon keng tushuncha ekanini, u zohiriy bilimlar, sha'riy hukmlar haqidagi bilimlarni ham, qalbning mushohada yo'li bilan haqiqiy vahdatni ko'rishi va shu yo'l bilan egallangan ilmni ham, solikning hol va mushohada tufayli Haqda foniy bo'lish va Haq bilan boqiy qolishidan hosil qilgan ma'rifatini ham qamrab olishini qayd etish zarur. Xullas, Haqni tanishga sabab bo'ladigan barcha bilimlar, hol va maqomlardagi kechinma, taassurotlar, ixlos-u ishonchlar irfonni tashkil etadi. Lutfiy o'z she'riyatida irfon turlaridan xoslar irfonini, irfon darajalaridan ayn ul-yaqin darajadagi irfonni badiiy talqin etgan.

4. Mavlono Lutfiy ijodi, xususan, undagi irfoniy qarashlarga zamin bo'lgan adabiy-estetik asoslarni ikki qismga taqsimlab tadqiq etish zarur. Bunda birinchi qism sifatida Lutfiygacha bo'lgan ijodkorlarning asarlari va ulardagi islomiy-ma'rifiy qarashlar talqini, ikkinchi qismda esa Lutfiyga zamondosh bo'lgan ijodkorlar asarlaridagi talqinlar ko'zda tutiladi. Irfoniy va tasavvufiy qarashlarni ifoda etgan asarlarda adabiy-estetik qarashlar umumiy bo'lsa-da, ammo har bir shoir ijodida o'z uslubi, yondashuvi, dunyoqarashi asnosida turlicha aks ettirilgan. Jumladan, Lutfiy g'azallari yuksak irfoniy mazmun va saviyaga ega ekanini ko'ramiz va shoirning ham dunyoviy, ham irfoniy bilimlar sohibi ekanligini anglaymiz. Bunda, shubhasiz, Lutfiy davri va ungacha bo'lgan vaqt mobaynida shakllangan ham turkiy, ham forsiy adabiyotdagi adabiy-estetik qarashlar, tajribalar asos bo'lib xizmat qilgan.

5. Mavlono Lutfiyning ulug' shoir bo'lgani borasida deyarli bahs yo'q. Ammo Lutfiyning orif shoirligi masalasida ixtilof mavjud. O'tgan asr adabiyotshunosligida Lutfiy zamondoshlari kabi dunyoviy muhabbat kuychisi degan qarash hukmronlik qildi. Aksar tadqiqotlarda Lutfiy she'riyatining eng muhim jihati – ma'rifiy mazmuni va ahamiyati chetlab o'tildi. Lutfiy orif shoir bo'lganini, avvalo, shoirning hayot tarzi, so'ngra ijodi to'la tasdiqlaydi. Lutfiy ham *zohiriy*, ham *botiniy* ilmlarni o'rgangan, tasavvuf shayxi Shahobiddin Xiyoboniy (Bistomiy) huzurida rasman suluk o'tagan. Umrining oxiriga qadar ham sulukni, ham badiiy ijodni tark etmagan. Agar *botin ilmi* deganda irfon, ma'rifat, *botin ahli* deganda esa so'fiylar nazarda tutilishi inobatga olinsa, Lutfiyni rasman suluk o'tagan, ham irfon sohibi, ham so'fiy bo'lgan ijodkor deb atash mumkin. Alisher Navoiyning munosabati va Lutfiy she'riyati tadqiqiga tayanib xulosa qilish mumkinki, Lutfiy o'z she'larida, asosan, xoslar irfonini kuylagan va bunda “yor jamoli vositasida Haqni mushohada qilish” yo'lidan borgan.

6. Mavlono Lutfiy ijodiy uslub nuqtayi nazaridan majoz tariqida (uslubida) qalam tebratuvchi ijodkorlar toifasiga mansub. Majoz tariqida ijod qiluvchi shoirlarning eng asosiy xususiyati – haqiqatni to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki majoz (vosita) orqali badiiy talqin qilish bo‘lib, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da keltirgan Lutfiy matlasi ayni shu uslub (tariq)da bitilgan. Navoiy ayni shu baytni Lutfiyning uslubi, ijodining muhim xususiyati, umuman, Lutfiy mansub bo‘lgan toifa ijodining tabiatini ko‘rsatuvchi namuna sifatida ta’kidlaydi. Lutfiy mansub bo‘lgan toifa shoirlarining yozganlarini haqiqat asrori – ilohiy ma’rifatdan boxabar odamlar asl ma’noda, bexabarlar bo‘lsa o‘ziga mos holda – majoziy (zohiriy) ma’noda tushunadi.

7. Lutfiy she’riyatidagi orif obrazi ilohiy ma’rifat sohibi, Haqni kashf-u mushohada yo‘li bilan tanigan, hamisha ilhom va hol, mukoshafa va mushohada girdobida yashaydigan inson. U tariqatda komil, Haqdan o‘zgasini tilamaydigan, faqat diydor talabidagi shaxs. Ta’kidlash kerakki, Lutfiy she’riyatidagi hamd va na’t g‘azallarda, orifona, rindona, maviza g‘azallarda shoir tasviridagi orif obraziga xos jihatlar ancha yaqqol namoyon bo‘ladi. Oshiqona she’rlarida esa lirik qahramonning orifona qiyofasi muayyan baytlarda namoyon bo‘lib boradi. Lutfiyning lirik qahramoni bir qarashda faqat telba oshiqdek ko‘rinsa-da, u o‘rni bilan ilohiy ma’rifatdan so‘z ochadi, dunyoning mohiyati va Haqqa yetishish asroridan ta’lim beradi. Olam va undagi narsalarni anglash orqali Yaratgan qudrati va azamatini idrok etishga, ma’nan yuksalib axloqni sayqallashga undaydi. Ma’naviy kamolotga chorlaydi.

8. Tasavvufiy timsollarning majoziy va haqiqiy ma’nolarini yaxshi bilmay turib XV asr birinchi yarmi o‘zbek she’riyati, xususan, Lutfiy she’riyati mohiyatini to‘g‘ri talqin qilib bo‘lmaydi. Bu davr shoirlari singari Lutfiy ham “majoz tariqi bila haqiqat asrorini kuylagan” (Alisher Navoiy), uning she’riyatida majoziy ishq tasviri haqiqiy ishq talqini bilan badiiy uyg‘unlashgan. Bunday uslubda irfoniy qatlamni ifodalashda tasavvufiy timsol va tushunchalar eng muhim poetik vazifani bajaradi. Ular ixtisoslashgan irfoniy ma’nolarni bilmay turib, shoirning haqiqiy salohiyati, mahoratini, ijodiy niyatini ko‘rsatib berish imkonsiz. Masalan, Lutfiyning lirik qahramoni har qancha ishqda iztirob chekmasin, u ayni paytda ilohiy ma’rifat sohibi hamdir. Boshqacha aytilsa, Lutfiyning lirik qahramoniga xos orifona qarashlar ham muhabbat iztiroblari fonida ifodalanadi. Bu xususiyat ular ham oddiy xalq, ham xoslar uchun birdek sevimli bo‘lishini ta’minlagan.

9. Mavlono Lutfiy she’riyatida qo‘llangan tasavvufiy timsollar va tushunchalarni mazmun jihatidan quyidagi turlarga ajratib o‘rganish mumkin: 1) Diniy-ma’rifiy atamalar (Alloh, iymon-kufr, Ka’ba, azal-qiyomat, Kavsar suvi, mehrob, qoba qavsayn, laylatul me’roj, ravza, jannat-do‘zax, but, tarso (tarsobacha), zunnor, pir kabi); 2) Borliq va tabiat ashyolari bilan bog‘liq atamalar (falak, olam, mavjudot, samoviy jismlar (quyosh kabi), gul, bulbul, parvona, bulut, qatra, xas kabi); 3) Tana a’zolari bilan bog‘liq atamalar (zulf, ko‘ngil, qosh, ko‘z, dudoq, yuz, ir, og‘iz, lab, bel, yanoq kabi); 4) May bilan bog‘liq atamalar (boda, may, mayxona, soqiy, sharob, jom, mug‘bacha kabi); 5) Turli narsa-buyumlar bilan bog‘liq atamalar (ko‘zgu, ko‘z yoshi, nur, burqa kabi). Ushbu tasnifning o‘ziyoq Lutfiy she’riyatida irfoniy timsol va tushunchalar naqadar katta va muhim o‘rin tutishini ko‘rsatib bera oladi.

10. Lutfiy o‘z ijodida diniy-ma’rifiy tushuncha va atamalar, timsollarga tez-tez murojaat etadi. Ulardan o‘zining lirik kechinmalari ifodasida mahorat bilan

foydalanadi. Shoir she'riyatida eng faol tasvirlangan tasavvuf timsollari inson a'zolari bilan bog'liq timsollar bo'lib, ular orasida ayniqsa yuz, zulf, ko'z, qosh, lab timsollari juda faol. Bir qarashda butunlay majoziy – dunyoviy go'zallik tasviridek tuyuluvchi poetik lavhalar, aslida, irfoniy haqiqatlar, ilohiy ma'rifat, pok muhabbat ifodasi uchun vosita qilingani oydinlashadi. Biroq Lutfiy she'riyatining irfoniy qatlamini idrok etish va tadqiq etish uchun tasavvuf istilohlari, tilini juda yaxshi bilish talab etiladi. Ana shunda bu boradagi talqinlar va fikrlar biryoqlamalikdan xoli bo'lishiga erishish mumkin bo'ladi.

11. Irfoniy adabiyotining o'ziga xos obraz va timsollar tizimi mavjud. Bu tizimning markazida orif obrazi tursa, yana bir qancha obraz, timsol va tushunchalarlar: kufr – imon, zarra – oftob, Fir'avn – Muso, odam va dunyo, soch va yuz, qatra va dengiz kabilar uni qurshab turadi. Mazkur tizimda muhim o'rin tutuvchi obrazlardan biri, shubhasiz, ko'ngildir. Ushbu obrazning ma'no ifodasidagi poetik vazifasini to'laqonli idrok etish uchun unga yuklatilgan irfoniy ma'nolarni va u bilan bog'liq atamalar mohiyatini teran bilish zarur.

12. Islom ta'limoti ta'sirida yaratilgan adabiyotlarda ko'ngil masalasiga jiddiy ahamiyat berilishi bejiz emas, chunki islom ta'limotida ko'ngil ozodaligi, qalb pokligiga katta e'tibor qaratiladi. Tasavvuf adabiyoti islom va tasavvuf ta'limotiga xos mazkur qarashlarni o'zi uchun dasturulamal qilib oldi va qalb tasfiyasi (poklanishi)ni asosiy masalalardan biri sifatida talqin etdi. Tasavvuf ahlining ko'ngil borasidagi qarashlari adabiyot, xususan, Lutfiy ijodidagi ko'ngil timsoli tasvirida asos bo'lib xizmat qilgan.

13. Lutfiy she'riyatidagi ko'ngil obrazi – ilohiy muhabbatga oshno, ma'rifatga tashna va muntazam dard-u azob iskanjasida o'rtanuvchi, bir lahza bo'lsin asl maqsadidan tonmaydigan qahramon. U ba'zan sokin, ba'zan g'alayonli, ba'zan mushohadakor, ba'zan telbanamo. U erkli sulton va asl maqsadi – mazhar orqali Haqni mushohada qilishda aqlning hech bir nasihatiga quloq tutmaydi. U butun borliqdan, ayniqsa, yorning har bir a'zosidan ilohiy haqiqatlarni, Yaratgan hikmatini idrok etishga intiladi. U o'zining oshiqligi, yorga muhtaloligi azaliy qismat ekanini tushunib yetgan va “Allohning uyi”, tajalligohi degan sharafli maqomga munosib bo'lishga intiladigan timsoldir. Lutfiydek shoirning ko'ngil borasida yozganlari ayni irfon bo'lib, shoir she'riyatidagi ko'ngil timsoli uchun Lutfiyning o'z ko'ngli prototip vazifasini bajargan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 AT ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE**

**ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE**

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA

**THE ARTISTIC INTERPRETATION OF Gnostic MEANINGS
IN LUTFI'S POETRY**

10.00.02 – Uzbek literature (Uzbek classical literature)

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2025

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.2.PhD/Fil4800.

The doctoral thesis was carried out at Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek language and Literature.

The dissertation abstract is available in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) and has been posted on the Scientific Council's website at www.tsuull.uz and on the "ZiyoNet" information and educational portal at www.ziynet.uz.

Scientific advisor:

Ashurova Gulbahor Nurullayevna

Doctor of Philological sciences, Associate professor

Official opponents:

Erkinov Aftandil Sadirkhanovich

Doctor of Philological sciences, professor

Karimova Faridakhon Isakovna

Doctor of Philological sciences, professor

Leading organization:

**National pedagogical university
of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will take place at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi on _____, 2025 at _____. (Address: 100100, Tashkent, Yakkasaray district, Yusuf Khos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (registered under No. _____). Address: 100100, Tashkent, Yakkasaray district, Yusuf Khos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.

The dissertation abstract was distributed on _____, 2025.

(Register protocol No. ____ dated _____, 2025)

Sh. S. Sirojiddinov

Chairman of the Scientific Council for the award of scientific degrees, Doctor of Philological sciences, Academician

K. U. Pardayev

Scientific Secretary of the Scientific Council for the award of scientific degrees, Doctor of Philological sciences, Professor

N. A. Jabborov

Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council for the award of scientific degrees, Doctor of Philological sciences, Professor

INTRODUCTION (the abstract of the (PhD) dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. The central theme of world literature is human perfection, which has been interpreted differently across various eras and societies. The primary function and aim of literature have always been to refine humanity's spiritual world and morality. However, this issue has been literaryally interpreted in literature based on the worldview, philosophy, and beliefs of each nation and people. Notably, in the literature of Eastern peoples, created under the influence of Islam, the spiritual perfection and moral maturity of individuals became closely intertwined with the philosophy of Sufism. This approach, involving a profound exploration of the relationship between humans and the universe, gave rise to a distinct literary movement in world literature – Sufi literature. Significant educational transformations create lofty ideals in humanity and shape new human values. Literary criticism, throughout its history, has been studying the system of symbols, images, and methods of expression in this literature, and has already accumulated considerable experience in this regard. The achievements of the literary and aesthetic thinking of Eastern peoples have been assessed to a certain extent. Currently, it is extremely relevant to reveal how this literary movement manifests itself in the works of writers from different nations, to uncover their general and individual characteristics, and thereby to illuminate the contribution of various peoples to the development of literary and spiritual life.

In world literary studies, issues such as the relationship between literature and Sufism, the factors that gave rise to Sufi literature, and the spiritual closeness between Sufi-dervishes and creative people have been studied. In this regard, world literary studies mainly focused on such issues as how Eastern writers depicted the issues of spiritual maturity by literary means, by what ways and methods they ensured the balance of content and expression, and what were their specific criteria in this process. Just as the purpose of literature is common to all peoples and its expression is specific, the general content characteristic of Sufi literature is also literaryally developed in the literature of each nation through unique symbols and images. It is of great scientific importance that modern literary studies show the peculiarities of the manifestation of the philosophy of mysticism in the literature of each nation, its place in the spiritual life of that nation.

In Uzbek literary studies, starting from the period of independence, a significant trend has emerged in researching literary works that literaryally embody the philosophy of mysticism, identifying patterns characteristic of shared literary traditions formed in this field, and studying the works of mystic writers. Indeed, during this period, profound understanding was gained of the Allahs that “The art of words, as a cultural phenomenon, possesses unlimited potential for educating and nurturing new generations”, and that “True art and pure, eternal spiritual values are created only by human beings through the grace of the Lord of the Worlds”³⁰. The philosophy of *irfon*, which is the essence of Uzbek classical literature, has been thoroughly studied through

³⁰ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. 2017-yil 4-avgustdagi soni.

the literary heritage of creators such as Yusuf Khos Hajib, Ahmad Yassavi, Ahmad Yugnaki, Nasiruddin Rabguzi, Atoyi, and Alisher Navoi. However, for most poets who lived and worked in the first half of the 15th century, including Mavlono Lutfiy, their works have predominantly been viewed as examples of secular lyricism and literature with worldly content. The lack of specialized research on the ideas of divine enlightenment and the philosophy of mysticism, which form the core of Lutfi's work, is a result of this approach. Nevertheless, studying Lutfiy's poetry in the context of mystical content and symbols is crucial for uncovering the creative concept and essence intended by the author. In this regard, it is of significant scientific and theoretical importance to reveal the dominant aspects of Uzbek poetry from Lutfiy's era, the scope of themes and content in the poet's work, the interpretations of metaphorical and true love, mystical images and symbols, and the changes in literary imagery, language, and style.

This dissertation research contributes, to a certain extent, to the implementation of tasks specified in the following documents: the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. DP-4797 dated May 13, 2016 "On the establishment of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi"; the Presidential Resolutions No. RP-2789 dated February 17, 2017 "On measures for the further improvement of the activities of the Academy of Sciences, and the organization, management, and financing of scientific research activities", No. RP-3271 dated September 13, 2017 "On the Program of comprehensive measures for the development of the system of publishing and distribution of books and for raising the culture of reading", No. RP-4865 dated October 19, 2020 "On the wide celebration of the 580th anniversary of the birth of the great poet and thinker Alisher Navoi"; the Order of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 124-F dated February 16, 2018 "On Holding an International Conference on "Urgent Issues of Studying and Promoting Uzbek Classical and Modern Literature on an International Scale"; as well as other relevant regulatory and legal documents pertaining to this field of activity.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic. The dissertation was conducted in accordance with the priority direction I of the republic's science and technology development: "Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational advancement of the information society and democratic state, and development of an innovative economy".

The extent of study of the problem. It can be said that the life and work of Mavlono Lutfi, one of the wordsmiths who made a significant contribution to the rise and development of Uzbek classical literature, began to be studied from his own time. The first reliable information about the poet's life and work has reached us through the prefaces of Alisher Navoi's works: "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Muhokamat ul-lughatayn", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Badoye ul-bidoya"³¹. Alisher Navoi's notes about Lutfi primarily serve

³¹ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 61 – 62; Shu muallif. Насойим ул-мухаббат. МАТ. 17-том. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 206 – 207; 409; 476 – 477; Shu muallif. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 35 – 36; Shu muallif. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. МАТ.

to elucidate his life and work, style, his status as an enlightened person, and his unparalleled mastery in both Turkic and Persian poetry. During this period, notes about Lutfi are also found in Xodamir's "Makorim ul-akhloq", "Habib us-siyar"³², as well as in Abdulla Kobuliy's "Tazkirat ut-tavorikh"³³. Among the writers who lived and worked in the 16th century, Babur's "Mukhtasar" includes verses from Lutfi, while Fakhriddin Ali Safi's "Latoyif ut-tavoyif" recounts an amusing incident that occurred between Lutfi and Boysunqur Mirzo³⁴. Sources from the 17th to 19th centuries (such as "Majmuayi mansur va manzumi Vozeh") merely reiterate the information from the aforementioned sources. As S. Erkinov observes, "None of the tazkiras written after Navoi contain any significant new information about Lutfiy's life and work"³⁵.

The efforts to popularize Mavlono Lutfiy's works and study them based on modern literary criteria began in the early 20th century with the activities of Abdurauf Fitrat. Fitrat Domla, for the first time in the history of our modern scholarship, published Lutfiy's *ghazals* and *tuyuq* as examples of Uzbek literature³⁶. Later, Pulatjon Qayumov recorded concise information about Lutfiy in his "Tazkirayi Qayyumiy"³⁷. Thus, interest in the poet's literary heritage and the study of poetry from his era intensified. Research by literary scholars was published one after another, including works by Oybek, E. Rustamov, N. Mallaev, A. Hayitmetov, E. Fozilov, H. Zarif, I. Hakkulov, A. Hayitmetov, Y. Iskhokov, S. Rafiddinov, M. Jamolova, M. Abduvohidova, Kh. Rasulov, B. Valixodjaev, S. Ganieva, Sh. Sirojiddinov, K. Mullaxodjaeva, B. Radjabova and N. Boymurodova³⁸. In this context, Botirkhon

15-том. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 92; Shu muallif. Ҳолоти Пахлавон Муҳаммад. МАТ. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 115 – 116; Shu muallif. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ. 1-том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 14 – 15.

³² Гиёсиддин Хондамир. Мақорим ул-ахлоқ. Форс тилидан Комилжон Раҳимов таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 40.; shu muallif. Ҳабиб ус-сияр. Нашрга тайёрловчи Жамол Ҳумоюнӣ. IV жилд. – Техрон: 1954. – Б. 107.

³³ Bu haqda qarang: Erkinov S. Lutfiy. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 6. : Сирожиддинов Ш. Алишер Навоӣ. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011; шу муаллиф. Амир Алишер. – Тошкент: Adabiyot, 2022; шу муаллиф. Шуҳрат домла. Ш.Сирожиддинов ҳақида. – Тошкент: Akademnashr, 2023; Siracoddinov Ş. Əmir Əlişir: həyatı və yaradıcılığı. Monoqrafiya. – Bakı: Ilm va təhsil, 2023.

³⁴ Фахриддин Али Сафӣ. Латоиф ат-тавоиф. – Душанбе, 1968. – Б. 84; "Ҳикоятлар ва ривоятлар". Тўловчи ва таржимон Кибриё Қаҳҳорова. – Тошкент, 1987. – Б. 62 – 63.

³⁵ Erkinov S. Lutfiy. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 5.

³⁶ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. Нашрга тайёрловчи О. Ҳамроева. – Тошкент: "Мумтоз сўз", 2013. – Б. 111 – 120.

³⁷ Пулатжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмӣ. – Тошкент: ЎЗР ФА Қўлғезмалар институти нашриёти, 1999. – Б. 32 – 34.

